



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqeelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Mamarajabov G'ayrat Abdulkakimovich
E-mail: gayrat_mamarajabov@tues.uz

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY TAJRIBA

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hunarmandchilik sohasini qo'llab-quvvatlashga doir qonunlar, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlarining mazmuni hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ochib berishdan iborat.

Tayanch so'zlar: milliy hunarmandchilik, Hunarmand» uyushmasi, huquqiy asoslar, davlat siyosati, kichik biznes, bandlik, taraqqiyot, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, uy-joy.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ РЕМЕСЛЕННОСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовые и нормативные рамки, направленные на развитие национальных ремесел в Узбекистане в годы независимости, и их практические результаты. Главная цель исследования – раскрыть содержание законов, президентских указов и правительственных постановлений о поддержке ремесленного сектора, а также их социально-экономическую эффективность.

Ключевые слова: национальные ремесла, ассоциация «Хунарманд», правовые рамки, государственная политика, малый бизнес, занятость, развитие, продовольствие, одежда, товары для дома, жилье.

LEGAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF HANDICRAFTS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article analyzes the legal and regulatory frameworks aimed at the development of national crafts in Uzbekistan during the years of independence and their practical results. The main goal of the study is to reveal the content of laws, presidential decrees and government resolutions on supporting the craft sector, as well as their socio-economic effectiveness.

Keywords: national crafts, Hunarmand association, legal frameworks, state policy, small business, employment, development, food, clothing, household goods, housing.

KIRISH

XX asrning 80-yillari so'ngiga kelib butun sovet mintaqasi chuqur ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga duch keldi. Aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, uy-joy bilan ta'minlash qiyinlashdi. Ayniqsa, O'zbekistonda ishsizlik masalasi og'ir edi. Negaki, uzoq yillar davomida respublika iqtisodiyotida hukm surgan paxta monopoliyasi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga imkon bermagan edi.

1986-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 18 487 ming kishini tashkil etgan. Shundan

10 742 mingi yoki 59,1% qishloqda, 7745 ming kishi yoki 41,9 % shaharda yashashi qayd etilgan. Surxondaryo viloyati aholisi 1133 ming bo'lib, 910 mingi yoki 80,4% qishloqda, 223 mingi, ya'ni 19,6% shaharlarda yashagan. Qashqadaryoning 1444 ming kishilik aholisidan 1079 mingi, yoki 74,7% qishloqda, 365 ming, yoki 25,3% shaharlarda yashagan. [1] Respublika janubiy hududlarida aholining asosiy qismi qishloqlarda yashashi hisobga olinsa, ijtimoiy muammolarning ham katta qismi qishloqlarga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi.

O'zbekistonda ishsizlikni tugatish, aholi

bandligini ta'minlash dolzarb vazifaga aylandi. Buning uchun kichik va o'rta biznes faoliyatini yo'lga qo'yish zarur edi. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati ishbilarmonlarning qonuniy maqomini belgilashga kirishdi.

O'zbekistonda xususiy ishbilarmonlik, shu jumladan, hunarmandchilik bilan bog'liq huquqiy hujjatlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin. Bularga:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (1990-1994 yillarda Oliy Kengash) tomonidan qabul qilingan qonunlar;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Xususiy ishbilarmonlikni rivojlantirish yo'lidagi harakatlarni tahlil qilishda 1990-yillarda qabul qilingan qonunlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 1990-yil 31 - oktyabrda qabul qilingan «Mulk to'g'risida»gi qonunda mulkning daxlsiz ekanligi va har bir shaxsning mulkdor bo'lishga haqli ekanligi belgilandi. Shuningdek, qonunda mulkiy huquq tan olindi va qonun bilan muhofaza etilishi qayd etiladi. [2]

Aholining xususiy mulkka bo'lgan munosabatini o'zgartirish, mulkka egalik hissini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari alohida o'rin tutadi. Chunonchi, 1994-yil 21-yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-745-son Farmoni xususiy mulkchilik taraqqiyotida tub burilish yasadi. Bu farmonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, xususiy mulkka aylantirish, ko'chmas mulk va respublika fond birjalarini tashkil etish choralari ko'rsatib o'tilgan edi. Shuningdek, mazkur Farmonga muvofiq, ishbilarmonlar tomonidan O'zbekistonga keltiriladigan barcha tovarlardan bojxona to'lovlari 1995-yil 1-iyulga qadar olib tashlandi. [3]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda hunarmandlar faoliyatini muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1997-yil 31-martdagi PF-1741-son Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, uy sharoitida yuksak badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi xalq hunarmandlarini xom ashyo va jihozlar

bilan ta'minlash, tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha maxsus do'konlar tarmog'ini tashkil qilish, yoshlarni hunarmandchilik sohasida o'qishlari uchun shart-sharoit yaratish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, Respublika "Hunarmand" uyushmasi faoliyati uchun 150 mln. so'm ajratib berildi. [4]

Keyingi yillarda usta-hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-apreldagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3983-son Farmoniga ko'ra, uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha yakka tartibda ishlayotgan shaxslar 2010- yilning 1 apreliga qadar soliq to'lovlaridan ozod etildilar. [5]

O'zbekistonda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2016-2021 yillarda hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan ustalarning soni 7 martaga, ularning qo'lida tarbiya topayotgan shogirdlar 9 martaga ko'payib, unda ishlovchilar soni 230 ming kishiga yetdi. Hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, 340 nafar usta undan joy oldi. Bundan tashqari, 1,5 mingga yaqin hunarmand turizm reyestriga kiritildi.

O'zbekistonda kichik biznesni shakllantirish ko'p ukkladli iqtisodiyotni rivojlantirish, uning salmoqli qismini xususiy mulk shakliga aylantirish bilan qo'shib olib borildi. Sababi, O'zbekistonda mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirmay turib, chinakam iqtisodiy raqobat muhitini yaratib bo'lmas edi. Hunarmandlarni jahon andozalari asosida ish yuritishga o'rgatish zarur edi. O'zbekistonning aholisi, ayniqsa, yoshlarni boqimandalik kayfiyatidan xalos etish, ularda ishbilarmonlik ishtiyoqini uyg'otish dolzarb masalaga aylandi.

Tahlil va natijalar. 1993-yili Sherobod kulolchilik zavodi hissadorlik jamiyatiga aylantirilgach, ish yurishib ketdi. Zavodda 30 ga yaqin sopol buyumlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu yerda 15 nafar yosh rassomlar ish bilan ta'minlandi. O'zbekiston rassomlar uyushmasi a'zosi Quadrat Ahrorov ularga ustozlik qildi. Yoshlar sayqal bergan «Nilufar», «Zilola», «Sovg'a» laganlari, «Jayhun», «At-Termiziy» vazalari chet ellik sayyohlar tomonidan alohida qiziqish bilan

sotib olindi. [6] O'sha yilning o'zida qariyb 25 mln so'mlik mahsulot sotildi. Zavodda tayyorlangan kulolchilik mahsulotlari Angliya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarda o'tkazilgan turli ko'rgazmalarda qatnashdi. [7]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-4210-son Farmoniga binoan, mamlakatimizda sohani taraqqiy ettirishga qaratilgan izchil sa'y-harakatlar amalga oshirildi. [8] Mazkur huquqiy hujjatda belgilanganidek, Surxondaryo viloyatida "Hunarmand" uyushmasining tuman bo'limlari tashkil etildi. Ushbu bo'limlar tomonidan oilaviy ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlash va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratishga erishildi. Jumladan, 2011-yilning yanvar-aprel oylari ichida banklar tomonidan ayollar tadbirkorligi va hunarmandchiligini taraqqiy toptirish maqsadida 4,6 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Natija esa, kutilganidek bo'ldi. Hududda aholi bandligini ta'minlash dasturiga binoan yaratilgan 1432 ta ish o'ri ni oilaviy ishbilarmonlik va hunarmandchilik hisobiga to'g'ri keldi. [9.12]

Yangi O'zbekiston sharoitida yosh hunarmandlarning faoliyati tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Ulardan Maftuna Azizova 2012-yili Boysun agrosanoat kasb-hunar kollejini tugatganidan so'ng yakka tartibdagi hunarmand sifatida ish boshladi. Milliy gilamlar to'qish bilan shug'ullanib, dong taratgan. Hozirda 20 nafar qishloq yoshlarini ish bilan band qilgan. 2018-yilda M.Azizova to'qigan gilamlar va tikkan milliy liboslariga YUNESKO tomonidan "Sifat belgisi" berildi. Endilikda hunarmand ushbu "Sifat belgisi" bilan xalqaro ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etishi mumkin. Uning tashabbusi bilan 2018-yilda Boysun tumanida "Yosh hunarmandlar" maktabi tashkil etildi. Maftuna Azizovaning xizmatlari davlat tomonidan e'tirof etilib, 2018-yilda Prezident Farmoniga ko'ra, "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi. [10]

Prezidentimiz tashabbusi bilan Qarshi shahridagi "Odina" jome masjidida (XIV asrda qurilgan) "Hunarmandchilik majmuasi" tashkil etildi. Majmuada qo'l mehnati asosida turli milliy kiyimlar tikish yo'lga qo'yildi. Qashqadaryo viloyati bo'yicha jami 500 nafar xotin-qiz shu ish bilan band. "Gulnor" savdo brendi ostida sotilayotgan ushbu kiyimlar

uchun Nyu-Yorkda - 2 ta va Parijda 1 ta maxsus do'kon ochilgan. Internet orqali ham onlayn-savdo yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, "Odina" hunarmandchilik majmuasida kandakor ustalar o'zlariga shogird tayyorlab, ularga ana shu o'ziga xos kasb sir-asrorini o'rgatishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan [11].

Umuman olganda, janubiy mintaqalarda hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan kishilarning soni yil sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2017-yilda Surxondaryo viloyatida 320 nafar hunarmand ro'yxatga olingan bo'lsa, 2020-yil sentyabrga kelib 3091 nafar hunarmand a'zo bo'lgan, ularning ishiga 34090 million so'm kredit ajratilgan. Natijada 3000 ga yaqin ish o'ri ni yaratilgan. [12.29] 2021-yilda Surxondaryo hunarmandlarining soni 4800 nafarga yetdi. Ular tomonidan 20 turdagi noyob mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. [13]

Xulosa. Mustaqillik yillarida shakllangan huquqiy asoslar va davlat siyosati O'zbekistonda hunarmandchilikning barqaror rivojlanishiga, milliy madaniy merosni asrash va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish mustaqillik yillarida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususiy mulkchilikni shakllantirish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar hunarmandchilik sohasining izchil taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi. Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari orqali hunarmandlar uchun soliq imtiyozlari, kreditlar, infratuzilmaviy va tashkiliy shart-sharoitlar ta'minlandi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida hunarmandlar sonining keskin oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga erishildi. Ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida hunarmandchilik asosida hududiy iqtisodiy faollik kuchaydi, milliy madaniy meros va xalq amaliy san'ati namunalarini asrash hamda jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar va davlat qo'llab-quvvatlovi ushbu sohaning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г. Статистический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1986. –С. 6-7.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990-yil, 31-33-son, 371-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, 2-son, 54-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil, 3-son, 89-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil, 14-15-son, 96-modda.
6. «Xalq so'zi» gazetasi, 1994-yil 9-fevral.
7. «Xalq so'zi» gazetasi, 1994-yil 14-yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 13-son, 93-modda.
9. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2-bayonnoma, 1-hujjat, 2011-yil, 18- may. –B. 12.
10. «Surxon tongi» gazetasi, 2018-yil 28-iyul.
11. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/akmal-saidov-qashqadaryo-hunarmandlari-amir-temur-kashf-etgan-katta-shaxmatni-tiklashgamanan-haqli>
12. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 1-bayonnoma, 2-hujjat, 2020-yil, 30- sentyabr. –B. 29.
13. «Surxon tongi» gazetasi, 2021-yil 11-mart.